NORMAN MEYLER HUJJATLI ROMANIDA IJTIMOIY MUHIT BADIIY TAHLILI

Xidirova Muxlisa Alisher qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
muhlisaxidirova@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23176014

Annotatsiya: Maqolada Amerikalik yozuvchi Norman Meylerning hujjatlar va faktlarga asoslanib yozilgan "Jallod qo'shig'i" (The Executioner's Song) romanidagi ustuvor mavzularga, jumladan ijtimoiy muhit mavzusining badiiy tahlili yoritiladi. Qolaversa, adabiyotda "tahlil" tushunchasi haqida ham qisqacha bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: tahlil, hujjatli roman, Norman Meyler, ijtimoiy muhit, adabiyot.

KIRISH. Adabiyot inson ma'naviy ozuqa oladigan, oddiy so'z orqali insonning jon tomiriga ta'sir o'tkazib, shuurini poklash va o'z-o'zini taftish qilish, idrok qilish jarayonlarini baxsh etuvchi san'at turidir. Badiiy adabiyotning asosiy kuchi inson ma'naviyatini boyitish, shu bilan birgalikda yashash tarziga ijobiylik, qolaversa ma'naviy ongi va salohiyatini boyitib, o'z hatti-harakatlarining natijasi, va komillik sari yetaklovchi asosiy vositalardan biri hamdir. Shu o'rinda, badiiy asarning kuchi va ta'sirini keltirar ekanmiz, bevosita badiiy tahlil usullari haqida gapirmasdan o'tishning imkoni yo'q.

Zero, badiiy asar yetarlicha to'g'ri va kitobxon qalbiga yetib boradigan holda tahlil qilinar ekan, undan kutiladigan natija ham albatta yuqori bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. G'oyat ko'p o'lchovli murakkab butunlik bo'lmish badiiy adabiyot namunasi o'quvchi tomonidan to'liq his etilib, anglanib, nafis adabiyotning sehru jozibasidan atroflicha xabardor bo'lingandagina ta'sirchan estetik-ma'naviy energiyaga aylanadi. "His etilmagan, anglanmagan go'zallik ma'naviyat shakllanishiga xizmat qila olmaydi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir,"- deya izohlaydi adabiyotshunos, professor Qozoqboy Yo'ldoshev.

Badiiy asarni tahlil qilish deganda esa asosan, ma'lum bo'linishlarga ko'ra asarni analiz qilish nazarda tutiladi. Shu o'rinda, Dilmurod Quronovning ushbu ta'rifi e'tirofga sazovordir:

"Tahlil atamasi odatda ilmda "analiz" deb yuritiladigan istilohning sinonimi sifatida tushuniladi. Analiz esa, ma'lumki, butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o`rnini o`rganishni ko`zda tutadi."

Badiiy asarni tahlil qilish mohiyatan asarni tushunishni, anglashni talab qiladi, bunda aynan asarni baholash tushunchasidan yiroq bo'lgan holda, ko'proq tadqiqotchi nuqtayi nazaridan tahlil qilish ko'zda tutiladi.

Umuman olganda badiiy asarni ikki xil tahlil qilish mumkin, ya'ni og'zaki va yozma. Biroq, yozma tahlil o'zining qator xususiyatlari bilan ustunlikka ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bunda asarning badiiyligini, estetik va tarbiyaviy jihatlarini ham namoyon etish muhim sanaladi.

Xususan, asarning ijtimoiy muhitini tahlil qilar ekanmiz, shaxs ma'lum muhitda o'sib-ulg'ayishi uning ruhiyati, ichki olamiga kuchli ta'sir o'tkazishini yaqqol anglash mumkin.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Yozuvchi Norman Meyler o'z hujjatli romanlarida ijtimoiy muhitni yoritar ekan, uni shunchaki faktlar umumlashmasi emas, balki shaxs ichki olami bilan mutassil kurashda bo'lgan murakkab vosita sifatida aks ettiradi. Meyler asarlarida bosh mavzu bo'lgan ijtimoiy muhitni ifodalash uchun asosan Zigmund Freyd nazariyalari va eksistensializm falsafalariga murojaat qiladi. Zero, ijodkor tushunchasiga ko'ra jamiyat tomonidan o'rnatilgan qat'iy tartib-qoidalar, texnologik taraqqiyot va urbanizatsiyalashuv inson ruhiyati, uning his-tuyg'ularini yemirilishiga sabab bo'ladi.

NATIJALAR. "Jallod qo'shig'i" romanida ham aynan ijtimoiy muhit va ichki olamning o'zaro mushtarakligi, bordi-yu bular talablarga javob bermaydigan bo'lsa shaxs ichki dunyosi ma'naviy tanazzulga yuz burganini hayotiy qahramonlar tasviri bilan namoyon etilgan. Zero, bosh qahramon Gari Gilmor tug'ilishi bilan jinoyatchi yohud firibgar bo'lib tug'ilmagan, unda qator ijobiy hislatlar bo'y cho'za boshlagan davrda ijtimoiy muhitning norasoligi uni berk ko'chaga boshlaganini ko'rish mumkin.

Deyarli butunlay Gilmor va oilasi, do'stlari, qurbonlarning oila a'zolari bilan intervyular, suhbatlar asosida yaratilgan hujjatli roman 3 qismdan iborat. Dastlab, qotilliklarga olib keluvchi omillar, sud va qatl voqealaridan iborat kitob, to'liq hujjatlarga va faktlarga asoslangan. Xususan, uning apellyatsiya jarayonini davom ettirishdan ko'ra qatl qilinishini talab qilishga qaroriga qaratilgan. Kitobning birinchi bo'limida Gilmorning bolalik hayoti va uning voyaga yetmaganlar jinoyati uchun qamoqxonalarda o'tgan o'spirinligi hikoya qilinadi. Jumladan, uning ilk qotillikni sodir etishidan bir necha oy muqaddam ozod qilingani va shu vaqt ichida o'rnatgan munosabatlari batafsil bayon etilgan.

Ikkinchi bo'limda esa Gilmorning sud jarayoniga, jumladan, uning o'lim hukmi ustidan shikoyat qilishdan bosh tortishi, advokatlarining uning nomidan davom etgan kurashiga e'tibor qaratilgan.

Intervyularda yozuvchining Gari Gilmor bilan aloqador har bir kishi bilan suhbatlashish uchun uni shunchalik ko'p vaqt sarflashga nima undaganini aytib o'tadi. Ijodkor Gilmor to'g'risida fikr bildirarkan, "Gilmorda men butun umrim mobaynida his qilgan og'riqli tuyg'ular, ba'zi o'xshash xotiralar mavjudligini tushundim" deydi.

MUHOKAMA. Adabiy tanqidchi Mark Edmundson "Jallod qo'shig'i"ni tahlil qilganda shunday dedi:

"Gilmor o'limga tayyor ekanligiga ishonchi komil bo'lgan paytdan boshlab, u ma'lum bir qadr-qimmatga ega bo'ladi [...] Gilmor romantik e'tiqodini rivojlantirdi. Gilmor qotilligi uchun qamoqqa tushgan paytdan boshlab, o'zini o'limga munosib bilar, va hayotini ana shunday yakunlashga rozi edi."

O'smirlik davridan boshlab, Gari Gilmor oilasidagi dahanaki janjallar va to'xtovsiz tahqirlardan qochish ilinjida ko'chaga chiqib ketadi, ko'cha to'dalariga qo'shilib, kichik jinoyatlar, kissavurliklar sodir etishni boshlaydi. Tabiiyki, o'z oilasida ro'shnolik, mehr tuymagan bola atrof-muhitga ham mehr bilan javob qaytarolmas, ichki alamzadalikni esa turli qing'irliklar qilishdan olardi. Shu yerda ijtimoiy muhit va shaxs konfliktining kulminatsiyasini ko'rishimiz mumkinki, Gilmor IQ testida 133 (statistikaga ko'ra, eng yuqori IQ darajasi 160) ball olgan, qobiliyat va muvaffaqiyatlarini belgilovchi imtihonlarda ham doimiy yuqori natija ko'rsatgan, badiiy iste'dodi yuksak bo'lishiga qaramay, 9-sinfda maktabni tashlab ketadi.

Dastlab ijtimoiy holatni aniqlaydigan bo'lsak, Garining oilasi boshidanoq bolalarning hayotiga bil'aks ta'sir ko'rsatadigan nomutanosib tarbiya uslublariga ega edi. Shuningdek, Mikal Gilmorning "Yurakdagi o'q" memuar kitobida oilaviy muhit to'g'risida shunday hikoya qilinadi:

"Men o'sgan oila akalarim o'sgan oila bilan bir xil emasdi. Ular doimo ko'chib yuruvchi oilada katta bo'lgan, hech qachon bir joyda muqim yashashmagan. Durustroq boshpana uchrab qolsa, unda ham, nari borsa bir necha oy yashashgan, xolos. Akalarim er xotinini o'lasi qilib urgan, xotinning

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ko'zlari momataloq bo'lib ko'karib ketgan, hamda muntazam kaltaklanishini ko'rgan holda ulg'ayishdi. Ular arzimagan harakatlar uchun turtilgan, kaltaklangan va kamsitilgan oilada o'sgan. Achinarlisi, bolalar faqat vaqtinchalik rohatda yashash uchun firibgarlik va aldovlar evaziga kun kechirgan oilada katta bo'lishdi. Men voyaga yetgan oilada ota-onam kabi akalarim ham uning poydevorida ishtirok etishgan. Ular men boshdan kechirishim, o'rganishim lozim bo'lgan, qolaversa, men yengishim va uzoqlashishim kerak bo'lgan holatlarning bir qismi edi. Akalarim menga olg'a intilish uchun ko'p narsa berishdi: xususan, o'z taqdiridan qochish imkoniyatini. Darhaqiqat, oilamning menga eng katta yaxshiligi ham shu, ularning xohish-istaklari, tahqirlari, yoki qarzlariga yengilmasdan, mustaqil bo'lish uchun imkon topganim edi."

XULOSA. Xulosa qiladigan bo'lsak, Norman Meyler "Jallod qo'shig'i" romanida Gari Gilmor hayotini bor bo'yoqlarda tasvirlaydi; Kitob Gari Gilmorning qotilliklari, sudlanishi va qatl etilishi bilan bog'liq voqealarga alohida to'xtalib o'tadi va u bilan aloqada bo'lgan odamlarning hayotini ham hikoya qilib boradi. Romanda ijtimoiy muhit tahlilining estetik funksiyasi orqali nafaqat fakt va axborotni yetkazib berish, balki kitobxonda his-tuyg'u, sentimentalizm yohud jamiyat tanazzulini idrok etish orqali ma'naviy mutaassir bo'ladi.

Hujjatli romanlarni badiiy tahlil qilish jarayonida, ijtimoiy omillarning inson hayotiga ta'siri nihoyatda katta ekanligini, asar qahramonlari, ya'ni jamiyat a'zolarining fojeaviy intihosi orqali yaqqol amin bo'lish mumkin. Holbuki, ushbu muammolarning ijobiy yechim topilishi shaxs va jamiyatdagi qanchadan-qancha taqdirlarni o'zgartirishi ham amalda o'z isbotini topgan.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. 2004, 242.
2. Language, truth and literature. A defense of Literary Humanism. Richard Gaskin. Oxford university press. 1989, 205
3. Mikal Gilmore. Shot in the Heart. Doubleday. 1994. P 290
4. Norman Mailer. The Executioner's Song. New York. Vintage International Edition,1998. P.1056
5. Paul Hernadi. What is literature? Bloomington, Indiana University Press, 1978. P. 257
6. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent. 2016. 306
7. The Contexts of Bakhtin. Philosophy, Authorship, Aesthetics. David Shepherd. University of Sheffield, 1998, 211.
8. Ulug'bek Hamdamov. Jahon adabiyoti. -«Barkamol fayz media» 2017, 352 bet.
9. Williams, Brownwyn T. "Never Let the Truth Stand in the Way of a Good Story: A Work for Three Voices." College English 65.3 (2003): 290-304. 82

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.